Avvalo, O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi [2], O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son¹ Qonun [1], shuningdek Prezident farmon va qarorlari [9], mahalliy budjetlar va hokimliklarning funksiyalari, vakolatlari hamda mas'uliyatini aniq belgilab beradi. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da [8, 23] mahalliy budjetlarning daromad manbalarini oshirish va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mahalliy budjet daromadlarini oshirish va hokimliklar vakolatlarini kengaytirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada olib borilgan ilmiy ishlar, o'quv qo'llanmalar va tadqiqotlar orqali mavzuni chuqur anglash imkoniyati yaratiladi. Jumladan, Qosimova G.A. va Shaakramov K.K. tomonidan tayyorlangan "Mahalliy budjetlar" nomli qo'llanmada [11] mahalliy budjetlar tuzilishi, ularning funksiyalari va ahamiyati keng yoritilgan. Mualliflar hokimliklar faoliyatida moliyaviy mustaqillikni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, G'aybullayev O. va O'roqov U. muallifligidagi qo'llanmada [12] O'zbekistondagi budjet tizimi va jarayoni tahlil qilingan. Unda mahalliy budjetlarning davlat moliyasi tizimidagi o'rni va ularning boshqarilishi borasida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Bu esa mahalliy darajada vakolatlar taqsimotini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Ye.M. Burxonovning ilmiy ishida [13] mahalliy budjetlarni muvozanatlash masalasiga iqtisodiy va huquqiy nuqtayi nazardan yondashilgan. Muallif mahalliy darajadagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun hokimliklar imkoniyatlarini oshirishni tavsiya qiladi.

Shu bilan birga, Nurmuhamedova B.I. tomonidan yozilgan "Davlat budjeti" darsligida [14] davlat budjetining tuzilishi va uning boshqaruv tizimi atroflicha yoritilgan. Unda mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining ajralmas qismi ekani va ularni mustahkamlashda hokimliklarning ishtiroki muhim ekani qayd etilgan.

Ayni paytda, Achilov U.U. "Budjet tasnifi" fanidan tuzgan o'quv-uslubiy majmuasida [15] budjet klassifikatsiyasi va budjet elementlarining to'g'ri tasniflanishi orqali mahalliy budjetlarni boshqarish imkoniyatlari kengroq yoritilgan. Bu esa mahalliy organlar faoliyatini moliyaviy jihatdan shaffoflashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Jo'rayev A.S., Amanov A.M. va Shodiyev O.A. tomonidan tayyorlangan darslikda [16] yuridik shaxslarning soliqqa tortilishi jarayoni tahlil qilingan. Unda mahalliy soliqlar va ular orqali hududiy budjet daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslari ham ko'rsatilgan.

Shuningdek, Primova N.I.ning maqolasida [17] mahalliy budjetlar uchun moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish yo'llari o'rganilgan. Muallif rivojlangan davlatlar modelini joriy qilish orqali mahalliy organlar faoliyatini strategik asosda yo'lga qo'yish imkoniyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Qobulov K.ning tadqiqotida [18] mahalliy budjet daromadlari hudud iqtisodiy salohiyatining muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Maqolada hokimliklarning budjetni to'ldirishdagi roli va vakolatlarini oshirish yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan.

Shu bilan bir qatorda, Ro'ziyev Z.I. [19] mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va ular samaradorligini oshirish masalalarini chuqur tahlil qiladi. Uning ishida mahalliy resurslardan samarali foydalanish va bu jarayonda hokimliklar ishtirokiga alohida urg'u berilgan.

Qolaversa, Sirojiddinova Z.X., Vaxobov A.V. va Siddiqov J.R.ning o'quv qo'llanmasi [20] davlat budjeti tuzilishi va mahalliy organlarning roli haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etadi. Unda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga mahalliy hokimiyat organlarining ta'siri qayd etilgan.

Yuldosheva N.N.ning maqolasida [21] esa mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Muallifning fikricha, mahalliy budjetlar imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun hokimliklarga kengroq vakolatlar berish zarur.

Yuqorida tahlil etilgan barcha adabiyotlar mazkur mavzuning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi va hokimliklarning vakolatlarini oshirish orqali mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirishda amaliy yo'nalishlarni belgilab beradi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar va tahlillar mahalliy moliyani de-sentralizatsiya qilish, hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash va ularni daromad yig'ishda faol ishtirokchiga aylantirishga qaratilgan. Masalan, Janubiy Koreya, Polsha, Turkiya va Indoneziya kabi mamlakatlarda mahalliy hokimiyat organlarining soliq siyosatidagi ishtirokini kuchaytirish orqali budjet barqarorligiga erishilgani qayd etilgan.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-112170>



Shu tariqa, mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy budgetlar daromad bazasini kengaytirish va hokimliklar vakolatlarini oshirish o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud bo'lib, bu boradagi ilmiy va amaliy yondashuvlarni sintezlash zarur. Bu esa mazkur mavzudagi tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleks yondashuv usullaridan keng foydalanildi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning mahalliy budget daromadlarini oshirish va hokimliklar vakolatlarini kengaytirishga oid iqtisodiy qarashlari o'rganildi. Shuningdek, sohaga oid qonunlar, qonunosti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ular asosida tegishli xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari shakllangan hozirgi sharoitda davlat boshqaruvi tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, mahalliy hokimiyat organlarining ham ijro mustaqilligi bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mamlakatimizda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining huquqiy va iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirishga doir izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mahalliy organlarning vakolatlarini kengaytirish, moliyaviy resurslar ustidan mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Amaliy jihatdan qaralganda, mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini kengaytirish, eng avvalo, hududiy ehtiyoj va ustuvorliklarni bevosita hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi. Mavjud budget-soliq siyosati doirasida mahalliy darajadagi hokimiyat institutlariga bir qator vakolatlar berilgan bo'lib, ular joriy iqtisodiy talablar nuqtayi nazaridan faoliyat olib bormoqda. Xususan, ular soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda mahalliy soliq va yig'imlar yuzasidan soliq to'lovchilarga imtiyozlar berish, shuningdek, soliq stavkalarining miqdorini belgilangan doirada o'zgartirish huquqiga egadir. Ushbu vakolatlar sohani rivojlantiradi. Shuningdek, qonunchilikda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan mahalliy Kengashlar faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda esa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida vazifalarni aniq belgilash amaliyoti joriy etilgan. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilgan, mahalliy Kengashlarning qonunchilikda belgilangan vakolatlariga xos bo'lmagan vazifalar ijrosi uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mas'ul etib belgilangan. Bu kabi yondashuvlar mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini kuchaytirish va ularning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. [24].

Hozirgi vaqtda mahalliy budgetlarning daromad qismini asosan umumdavlat soliqlari hisobidan shakllantirish tajribasi mavjud bo'lib, bu, o'z navbatida, mahalliy budgetlarning mustaqil moliyaviy siyosatini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan, xarajatlarni mahalliy soliqlar va yig'imlar – ya'ni mahalliy budgetlarning birlamchi va barqaror manbalari hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Moliyaviy avtonomiya prinsiplariga muvofiq, hududlarning o'z daromad manbalarini shakllantirish salohiyatini kuchaytirish va mustahkamlash istiqbolli yo'nalish sifatida belgilab olinmoqda.

Mahalliy hokimiyat organlariga o'ziga birlashtirilgan soliq va yig'imlar bo'yicha vakolatlar doirasini kengaytirish orqali ularning mustaqil daromadlar bazasini shakllantirish imkoniyatlari oshirilishi rejalashtirilmoqda. Ayni vaqtda, ayrim umumdavlat soliqlari bo'yicha mahalliy hokimiyat organlariga muhim ahamiyatga ega vakolatlar berilgan bo'lib, ular jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad solig'i hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan alohida faoliyat turlari uchun to'lanadigan qat'iy soliqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu soliqlarda Prezident qarori asosida belgilangan stavkalar doirasida mahalliy boshqaruv organlari o'z hududlari uchun konkret soliq stavkalarini aniqlash huquqiga ega bo'lib, kelgusida bu mexanizmni takomillashtirish orqali hududlarning moliyaviy resurslarini mustaqil shakllantirish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi.

Mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy faollikni rivojlantirish, budget tushumlarini ko'paytirish va o'z hududida investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha mustaqil tashabbus ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, hududlar o'rtasidagi budget daromadlari muvozanatini ta'minlash va markaziy hukumatga fiskal qaramlik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish imkonini beradi.

Mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantirishda subvensiya tizimining mavjudligi ham muhim moliyaviy vosita sifatida ko'rilmogda. Shu orqali, davlat tomonidan hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni yumshatish va hududlar rivojlanishining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilinmoqda. Bunda, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy hokimiyat organlari mustaqilligini bosqichma-bosqich mustahkamlash va ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash strategik yo'nalish sifatida ilgari surilmoqda.



Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar tizimini yanada optimallashtirish va subvensiya mexanizmini takomillashtirish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish, shuningdek, budjet qonunchiligi talablariga muvofiq mahalliy budjetlarda taqchillik holatlarining oldini olishga qaratilgan amaliy mexanizmlar yanada rivojlantiriladi.

AQSH, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinadiki, soliq qonunchiligiga juda kam hollarda o'zgartirishlar kiritiladi va amaldagi normalar uzoq yillar davomida barqaror saqlanadi. Bu esa iqtisodiy muhitning barqarorligi va tadbirkorlik faoliyatining prognoz qilinuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda soliq tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish maqsadida amaldagi soliq qonunchiligiga deyarli har yili o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borilmoqda [25]. Ushbu jarayonning tizimli va izchil yondashuvlar bilan takomillashtirilishi kelgusida soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

Bugungi kunda hududiy budjetlarning daromad manbalarini kengaytirish bo'yicha faol islohotlar olib borilmoqda. Xususan, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlari, turar joy fondi va xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan noturar ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu borada mol-mulk va yer uchastkalarini soliqqa tortishni yanada samarali tashkil etish, ularning hisobini yuritish va baholash jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, yer, suv va yer qa'ri resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali hududiy budjetlarning mustaqilligini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olinmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish va byudjetlararo tenglikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, kelgusida mamlakatimizning makroiqtisodiy barqarorligi va investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qilishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son² Farmonlari [7] ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 1043-son³li qarori [10] qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, kadastr qiymati belgilangan tartib asosida foydalanishga topshirilgan jismoniy shaxslar mulkiga tegishli turar joylar, xususan, xonadonlar, kvartiralar hamda bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining bog'uyllari (dala-hovlilari) uchun aniqlanadi. Bu tartib ko'chmas mulk ob'ektlarining moliyaviy bahosini tizimli asosda shakllantirishga, shuningdek, mol-mulk soliqlari va mahalliy budjetlar daromadlar bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim ko'chmas mulk obyektlari bunday baholash tartibidan mustasno etilgan. Jumladan, qurilish jarayonida bo'lgan obyektlar, qonuniy tartibda egasiz deb topilgan mulklar va mahalliy davlat hokimiyati organlari qaroriga asosan foydalanish uchun yaroqsiz deb e'tirof etilgan obyektlar uchun kadastr qiymati aniqlanmaydi. Bu yondashuv mulklarning amaldagi huquqiy va texnik holatini inobatga olgan holda baholash tizimining aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Agar kadastr qiymati fuqarolar tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan va foydalanilayotgan obyektlarga nisbatan hisoblab chiqilgan bo'lsa, ushbu obyektlar uchun jismoniy shaxslar tomonidan soliq to'lash majburiyati yuzaga keladi. Biroq, bunday kadastr bahosi mazkur mulkka nisbatan mulk huquqini huquqiy asosda tasdiqlovchi hujjat sifatida tan olinmaydi. Ya'ni, baholangan qiymat fuqarolik-huquqiy jihatdan egalik huquqini mustahkamlovchi dalil hisoblanmaydi, bu esa huquqiy tizimda mulkni to'liq rasmiylashtirish tartibiga rioya etish zaruratini ta'kidlaydi.

Ko'chmas mulkka tegishli o'zgarishlar, masalan, rekonstruksiya, yangi qo'shimchalar qurilishi yoki boshqa arxitektura o'zgarishlari yuzaga kelgan taqdirda, "Daveergeodezskadastr" qo'mitasi tomonidan ushbu obyektlarning kadastr qiymati qayta ko'rib chiqiladi. Yangilangan ma'lumotlar esa qonunchilikda belgilangan muddatlarga muvofiq tarzda soliq organlariga taqdim etiladi, bu esa soliqqa tortish bazasining yangilanib borishini va adolatligini ta'minlanishini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mol-mulklar hamda ularning mulkdorlari to'g'risidagi axborotni real vaqt rejimida elektron shaklda davlat soliq organlariga taqdim etishi shart etib belgilangan. Bu chora zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda soliq ma'lumotlari bazasining aniqligi va shaffofligini oshirish, shuningdek, soliqqa tortish tizimining samaradorligini ta'minlash imkonini beradi[3].

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etishi lozim bo'lgan organlar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari ushbu axborotni taqdim etmaslik,

² <https://lex.uz/docs/-3271159>

³ <https://lex.uz/docs/-3486774>



o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki noto'g'ri shaklda taqdim etganlik uchun belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi. Bu tartib soliq intizomini mustahkamlash va soliq ma'lumotlari oqimini tizimlashtirishga xizmat qilmoqda. Qonunchilikka muvofiq, bunday huquqbuzarliklar uchun eng kam ish haqining yetti baravaridan o'n baravarigacha, takroriy holatlarda esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan [4].

Bugungi kunda soliq yuki darajasini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligini zamon talablari asosida takomillashtirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning ustuvor omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishlarning uyg'un holda olib borilishi moliyaviy barqarorlikka erishish va biznes muhitini yanada yaxshilash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar soliqqa oid tizimda ayrim takomillashtirishga muhtoj jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Mazkur jihatlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlik faolligini yanada rag'batlantirish va sog'lom raqobat muhitini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Xususan, umumbelgilangan soliqlarni to'laydigan subyektlarning soliq yukini maqbullashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini oshirish va soddalashtirilgan soliq tizimi bilan o'zaro teng sharoitlarni yaratish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida adolatli raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ish haqi bilan bog'liq soliqlar stavkalarini maqbullashtirish orqali esa xodimlar soni va ularning haq to'lash fondi ustidan to'liq va shaffof hisobot yuritishni rag'batlantirish, natijada norasmiy mehnat bozorining qisqarishiga erishish imkoniyati vujudga keladi.

Shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini berish jarayonini yanada tizimlashtirish, individual imtiyozlar samaradorligini baholovchi va monitoring qiluvchi mexanizmlarni kuchaytirish orqali sog'lom raqobat tamoyillarini yanada mustahkamlash choralari ko'rilmogda. Bu yondashuv soliq tizimining adolatliligi va shaffofligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mahalliy darajadagi soliq va yig'imlar bo'yicha boshqaruv tizimini takomillashtirish, ularning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va mavjud resurslar bazasini to'liq namoyon etish orqali hududiy moliyaviy mustaqillikni yanada rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Ko'chmas mulk va yer uchastkalarini hisobga olish va baholash mexanizmlarining zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirilishi bu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Hududiy kontekstda qaralganda, mahalliy soliqlar va yig'imlar budget daromadlarining asosiy manbalaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, mahalliy daromad manbalarini mustahkamlash orqali hududlarning o'z xarajatlarini o'z daromadlari hisobidan qoplash imkoniyatlarini kengaytirish, fiskal mustaqillikni oshiradi.

Kelgusida mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish mamlakat soliq tizimini izchil rivojlantirish va modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Bu yondashuv mahalliy hokimiyatlarning daromad bazasini mustahkamlash bilan birga, soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kengaytirish imkoniyatlarini ham taqdim etadi.

Soliqlar zamonaviy davlat boshqaruvida iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Mahalliy hokimiyat organlarining esa hududiy shart-sharoitlarni to'liq hisobga olish imkoniyatiga egaligi, ularning soliqqa doir vakolatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish imkonini yaratadi. Bu esa iqtisodiyotni yanada diversifikatsiyalash va hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Yashnobod tumani mahalliy budgetiga soliqlardan ajratmalarning me'yorlari[22]⁴ foizda.

№	Daromad turlari	Yillar		
		2022	2023	2024
1.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiya asosida to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	100	100	100
2.	Aksiz solig'i	55	15	15
3.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9	16	19
4.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100	100	100
5.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	7	17	10
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	100	100	100

⁴ Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



7.	Aylanmadan olinadigan soliq	28	21	18
8.	Suv resurslaridan olinadigan soliq	100	100	100
9.	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiy lashtirishdan tushadigan daromad	100	100	100

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Yashnobod tumani mahalliy budjeti daromadlariga kelib tushadigan soliqlar va daromadlarning belgilangan me'yorlarida yillar kesimida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lgan. Jumladan, mahalliy budjetga to'liq birlashtirilgan soliqlar daromadlarining belgilangan me'yorlari izchil saqlab qolinib, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha yillar davomida tushumlar mahalliy budjet daromadlariga to'liq birlashtirilgan holda mustahkamlangan. Bu holat hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ijobiy omil sifatida ko'rilmogda.

Asosiy o'zgarishlar ayrim turdagi soliqlar bo'yicha kuzatilgan. Xususan, aksiz solig'i – benzin, dizel yoqilg'isi va gazning chakana savdosidan olinadigan soliqlar – bo'yicha 2022-yilda 55 % mablag' mahalliy budjetda qoldirilgan bo'lsa, 2023 va 2024-yillarda ushbu soliqdan ajratiladigan mablag' hajmi 15 % darajasida belgilangan. Bu esa, aksiz solig'idan tushadigan mablag'lar taqsimotining qayta ko'rib chiqilishi orqali hududlar va respublika byudjeti o'rtasidagi moliyaviy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha belgilangan me'yorlarning yillar kesimida oshgani kuzatiladi. Bu o'zgarish mahalliy darajadagi moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash va hududlarning o'z byudjetlarini shakllantirishdagi salohiyatini oshirishga xizmat qilmogda.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha esa me'yorlarning yillar davomida pasayish tendensiyasi kuzatilmogda. Bu holat aylanmadan olinadigan soliq yukini yengillashtirish va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan maqsadli soliq siyosati natijasi sifatida baholanadi.

Umuman olganda, Yashnobod tumani misolida ko'rilayotgan ushbu soliq siyosati o'zgarishlari hududiy budjetlarning barqaror daromad manbalarini kengaytirish, fiskal mustaqillikni mustahkamlash hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish maqsadlariga qaratilganligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy hokimliklarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi rolini yanada kuchaytirish va mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish borasida bir qator amaliy chora-tadbirlarni tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, mahalliy hokimliklarning soliq yig'irlarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida rejadan ortiq tushgan soliq miqdorini taqsimlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zarur. Hozirgi amaliyotda rejadan ortiq tushumlar Respublika va mahalliy budjetlarning joriy ehtiyojlaridan kelib chiqib tizimlanmagan tarzda taqsimlanmogda. Yagona va barqaror me'yorlarning joriy etilishi subvensiyalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va mahalliy moliyaviy mustaqillikni oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash maqsadida ularga to'g'ridan-to'g'ri tushadigan soliqlarni hisoblash usullari va ularga berilgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish zarur. Hududlarning geografik va iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilangan stavkalar ba'zi hollarda nomutanosiblik kasb etgani bois, ularni maqbullashtirish, tabiiy resurslarga oid soliq imtiyozlarini qisqartirish va asosiy soliq yukini ana shu soliqlarga yo'naltirish orqali resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish lozim.

Uchinchidan, tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha yagona va barqaror me'yorlarni kamida besh yil muddatga qat'iy belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv mahalliy hokimiyat organlarining soliqlarni yig'ishga bo'lgan manfaatdorligini oshiradi, boqimandalik kayfiyatini kamaytiradi va soliq bazasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliq tizimini takomillashtirishda resurs soliqlariga ustuvor e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, amaldagi mexanizmlarning tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirishdagi ta'sirini yanada kuchaytirish zarurati saqlanib qolmogda. Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishini soliqlar orqali rag'batlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmogda. Bu borada mahalliy hokimiyatlarning vakolatlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Amaldagi tajribalar shuni ko'rsatmogdaki, mahalliy soliqlar va yig'irlarning budjet daromadlaridagi ulushi nisbatan past bo'lib, bu holat mahalliy hokimliklarning soliq-budjet huquqlarini kengaytirish va mahalliy soliqlar tizimini takomillashtirish zaruratini taqozo etmogda.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida mahalliy budjet daromadlarini kengaytirish istiqbollari yuzasidan quyidagi xulosalar ilgari suriladi:

Mahalliy budjet xarajatlaridagi transfert (subvensiya) ulushining farqlanishi hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, sanoat korxonalarining mavjudligi va soliq to'lovchilar soni kabi omillar bilan bevosita bog'liq.



Yuqori budjetlardan transfert olayotgan hududlarda mahalliy soliq salohiyatini baholash va soliq tushumlarini aniq prognozlash metodikasini ishlab chiqish zarur.

Hududlarning moliyaviy ehtiyojlarini qoplash va mahalliy hokimiyat organlarining budjet shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish maqsadida ularga mahalliy soliqlarni joriy etish, soliq stavkalarini belgilash va soliq imtiyozlarini taqdim etish vakolatlarini kengaytirish lozim.

Mahalliy budjet daromadlarini kengaytirishda mol-mulk va yer soliqlari obyektlarini hisobga olishda soliq organlari va kadastr agentligi o'rtasidagi axborot nomuvofiqliklarini bartaraf etish va ularning axborot bazalarini integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Hududiy budjetlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish maqsadida ko'chmas mulk qiymatini bozor bahosiga yaqinlashtirib, bosqichma-bosqich yagona ko'chmas mulk solig'iga o'tish zarur.

Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosatida mahalliy hokimliklarning o'rni tobora kuchayib bormoqda. Ularning vakolatlarini kengaytirish, yagona soliq siyosatini yuritishda faol ishtirokini ta'minlash va hududiy budjetlarning mustahkam moliyaviy bazasini shakllantirish iqtisodiy taraqqiyot va moliyaviy barqarorlikka erishishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" 913-XII-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-112170?ONDATE=14.08.2024>
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. (2023-yil 1-maydagi o'zgarishlar bilan) <http://www.lex.uz> (normativ - huquqiy baza).
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2024-yil 30-maydagi o'zgarishlar bilan) <http://www.lex.uz> (normativ - huquqiy baza).
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PF-5065-son "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-3223420?ONDATE=07.09.2020>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3232501>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3271159>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi "Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-178-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5921306?ONDATE=01.01.2023%2001>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, 30.12.2017 yildagi 1043-son. <https://lex.uz/ru/docs/-3486774>
11. Kasimova G. A., Shaakramov K. K. Mahalliy budjetlar. O'quv qo'llanma. –T.: "Moliya", 2012. –85 b.
12. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press", 2016 y.
13. Burxonov E.M. Mahalliy budjetlarni muvozanatlashning iqtisodiy va huquqiy masalalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
14. Nurmuxamedova B.I. Davlat budjeti. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIIYA", 2018. -630 b.
15. Achilov U.U. "Budjet tasnifi" fanidan o'quv-uslubiy majmua.–T.: TMI, 2019.
16. Jo'rayev A.S., Amanov A.M., Shodiyev O.A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIIYA", 2020. –360 b.
17. Primova N.I. Mahalliy budjetlarning moliyaviy strategiyalari shakllantirishning ilg'or xorijiy tajribalari. "Moliya va bank ishi" ilmiy elektron jurnali, 4-son. Toshkent-iyul-avgust 2020-y.
18. Kobulov, K. (2020). Mahalliy budjet daromadlari – hudud daromad salohiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida. Архив научных исследований, 35(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3705>
19. Ro'ziyev Z.I. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va samaradorligini oshirish istiqbollari// Innovatsion texnologiyalar, №. 3 (39), 2020.
20. Sirojiddinova Z.X., Vaxobov A.V., Siddikov J.R. / Государственный бюджет Республики Узбекистан. // Учебное пособие. -Т.: ТФИ, 2021.
21. Yuldosheva N.N. Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish masalalari // Экономика и финансы (Узбекистан). №3. 2021.
22. Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
23. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti).
24. <https://lex.uz/uz/docs/-6789350>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
